# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

## "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHDA INNOVATSIYALARNI KENG JORIY QILISH VA BARQAROR IQTISODIYOTNI INSTITUTSIONAL TARAQQIY ETTIRISH DOLZARBLIGI

## INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF A SUSTAINABLE ECONOMY AND WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS DURING THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

## ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ УСТОЙЧИВОЙ ЭКОНОМИКИ И ШИРОКОЕ ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКЕ

Onlayin xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil 20-may




MAXSUS SON

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## II shu'ba

# "YASHIL" IQTISODIYOTGA INNOVATSIYALARNI KENG JORIY ETISHDA ILMIY TADQIQOT ISHLARINING LOYIHAVIY ISTIQBOLLARI

## Section II

# DESIGN PERSPECTIVES FOR RESEARCH WORK ON THE WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS IN THE GREEN ECONOMY

## II секция

# ПРОЕКТНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ ПО ШИРОКОМУ ВНЕДРЕНИЮ ИННОВАЦИЙ В "ЗЕЛЕНУЮ" ЭКОНОМИКУ



IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

# INNOVATSION RIVOJLANISHNI BAHOLOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (XORIJ TAJRIBASI)

**Nuriddinov Zufar Akbarovich**
PhD, Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatning innovatsion rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi statistik koʻrsatkichlar tizimiga yoʻnaltirilgan hamda tadqiqot natijasida ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan. Xususan, innovatsion salohiyatni rivojlantirishga taʼsir qiluvchi omillarni salbiy va ijobiy turlariga ajratib koʻrsatilgan.

Kalit soʻzlar: innovatsiya, statistik indikatorlar, innovatsion rivojlanish, innovatsion salohiyat, innovatsion natijadorlik.

Abstract: This article examines the system of statistical indicators reflecting the processes of innovative development of the country, and based on the results of the study, scientific and practical recommendations are given. In particular, factors influencing the development of innovative potential are divided into negative and positive types.

Key words: innovations, statistical indicators, innovative development, innovative potential, innovative efficiency.

Аннотация: В данной статье рассмотрена система статистических показателей, отражающих процессы инновационного развития страны, и по результатам исследования даны научно-практические рекомендации. В частности, факторы, влияющие на развитие инновационного потенциала, делятся на отрицательные и положительные типы.

Ключевые слова: инновации, статистические показатели, инновационное развитие, инновационный потенциал, инновационная эффективность.

## KIRISH

Bugungi kunda jahonda innovatsion rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi statistik koʻrsatkichlar va ular asosida mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajalariga baho berishga doir qator amaliy va ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, innovatsiyalar uchun gʻoyalar va konsepsiyalarni bozorga chiqarishdan oldin va ularni tijoratlashtirishdan keyin, ayniqsa innovatsion jarayonning dastlabki bosqichlarini baholash uchun qanday aniq koʻrsatkichlardan foydalanish mumkin? Bu savol olimlar, menejerlar va tadqiqotchilar tomonidan qayta-qayta soʻraladi. Innovatsiya koʻrsatkichlarini oʻrganuvchi nashrlar sonining koʻpayishi ushbu savolga javoblarga boʻlgan talabni aks ettiradi. Xorijiy mamlakatlarda innovatsion rivojlanishni ifodalovchi indekslar orqali reytinglar eʼlon qilib boriladi.

Innovatsion rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi statistik indikatorlar tizimini hamda ular asosida mamlakat va uning hududlarining innovatsion holatiga statistik baholashni nazariy hamda uslubiy jihatlarini tadqiq qilish jarayonida bir qator Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi mamlakatlari olimlari, mamlakatimiz olimlari va xorij mamlakat olimlari olib borgan tadqiqotlarni oʻrgandik hamda oʻzimizning tadqiqotimizni amalga oshirdik.

**Xorij mamlakatlari olimlaridan:** Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti tomonidan chop etiladigan yillik Global Innovatsiyalar indeksi muallifi Sumitra Dutta (Soumitra Dutta) Innovatsiyalar haqidagi eng toʻliq tasavvurni taqdim etish uchun moʻljallangan indeks har bir mamlakatdagi siyosiy vaziyat, taʼlim tizimi, infratuzilma va bilimlarni yaratish boʻyicha koʻrsatkichlarni oʻz ichiga olgan 80 ga yaqin koʻrsatkichni qamrab olagan reyting tizimini yaratgan hamda boshqa tadqiqot ishlarida ham bu indikatorlarni takomillashtirib borgan [1, 2, 3].

Stefan Hittmar, Michal Varmus, Viliam Lendel tomonlaridan “Koʻrsatkichlar toʻplami orqali innovatsion strategiyani muvaffaqiyatli qoʻllashni baholash tizimi” nomli maqolasida, innovatsion jarayonning turli bosqichlarini hisobga olgan holda innovatsion strategiyani muvaffaqiyatli qoʻllash uchun mos koʻrsatkichlar tizimi taklif qilingan [4].

Ekaterina Kharchenko, Elena Alpeeva, Olga Ovcharova kabi tadqiqotchilar tomonidan “Rossiya mintaqalarining innovatsion salohiyati: tahlil qilishning uslubiy jihatlari va rivojlanish tendensiyalari” nomli tadqiqot ishida mintaqaning innovatsion salohiyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimini taklif qilgan [5].

**Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan:** Milliy tadqiqot universiteti “Iqtisodiyot oliy maktabi”, Statistik tadqiqotlar va bilimlar iqtisodiyoti instituti va Rossiya klaster observatoriyasi ilmiy tadqiqotchilari “Rossiya Federatsiyasi subyektlarining innovatsion rivojlanish reytingi”ni innovatsion rivojlanish indikatorlar tizimini umumlashtirgan holda har yil e’lon qilib boradi [6].

Burseva T.A., Sotnikov A.A., Suxinin I.V. kabi olimlarning “Kaluga viloyatining mintaqaviy innovatsion tizimini shakllantirish” mavzusidagi monografiyasida innovatsion tizimni shakllantirishda indikatrolar tizimini taklif qilgan [7].

Bortnik I.M., Senchenya G.I. va boshqalar tomonidan “Rossiya mintaqalarining innovatsion rivojlanishini baholash va monitoring qilish tizimi” nomli maqolasida Rossiya hududlarining innovatsion rivojlanish indeksining tarkibiy qismlarini taklif qilgan [8].

**Mamlakatimiz olimlaridan:** D.X.Shadiyeva iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik ishini “Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini investitsiyalashning nazariy asoslarini takomillashtirish” mavzusida qilib, bunda milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ifodalovchi indikatorlarni tahlillar orqali yoritib bergan [9].

Yuqorida qayd etilgan va boshqa ilmiy tadqiqot ishlari innovatsion rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi statistik indikatorlar tizimini tahlil qilish hamda innovatsion rivojlanishni baholash muammolarini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy o‘rganishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

## MATERIAL VA METOD

Xalqaro amaliyotda mamlakatlarning innovatsion rivojlanish indikatorlarini shakllantirishda katta tajriba to‘plangan. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bu masalaga katta e’tibor qaratilayotgani mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajasi uning iqtisodiyotining jahon makonida raqobatbardoshligini belgilab berishi bilan izohlanadi.

Mamlakatlarning innovatsion rivojlanishining eng mashhur reytinglari: Yevropa innovatsiyalar reytingi (The European Innovation Scoreboard – EIS), Xalqaro innovatsiyalar indeksi (The International Innovation Index – III), Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index – GCI), Global innovatsiyalar indeksi (The Global Innovation Index – GII).

Ushbu reytinglardan Global innovatsiyalar indeksida (The Global Innovation Index – GII) 2021-yilda O‘zbekiston 86-o‘rinni egallagan. Bu global innovatsiyalar indeksida 80 dan ortiq indikator bo‘yicha mamlakatlarning o‘rinlari hisoblangan. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning innovatsion rivojlanish darajasi bo‘yicha 50 ta rivojlangan davlatlar orasiga kirish vazifasi qo‘yilgan. Ushbu holatning muhimligini anglagan holda, mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini rag‘batlantirish uchun bir qator choralar ko‘rilmoqda.

Oxirgi yillarda innovatsiyaning mohiyati hamda ahamiyati oshishi munosabati bilan mamlakatni innovatsion rivojlanish indikatorlari hisoblana boshlandi. Fikrimizcha, mamlakatning innovatsion rivojlanishini baholashda foydalaniladigan indikatorlar tizimi hozirgi zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. Chunki ularning ko‘pchiligi birinchidan, innovatsion rivojlanishga bir tomonlama baho beradi, ikkinchidan, ular asosan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri uchun ishlab chiqilgan, uchinchidan, mamlakatda ular respublika yoki viloyatlar bo‘yicha hisoblaniladi, to‘rtinchidan, ular innovatsion rivojlanish talablariga deyarli javob bermaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, fikrimizcha, avvalambor iinovatsion salohiyat tushunchasiga e’tibor qaratish lozim, ya’ni mamlakat yoki hududlardagi holat qanday innovatsion saloyatga ega ekanligini aniqlashtirish kerak. Undan so‘ng, innovatsion salohiyatni rivojlantirishga ta’sir qiladigan omillarni inobatga olish lozim, shunda innovatsion rivojlanishni ifodalovchi statistik indikatorlarni shakllantirish va yaratishda ularga ta’sir qiladigan omillar qaysi faktorlar bo‘lishini bilgan holda statistik baholash amalga oshiriladi. Quyida innovatsion salohiyatni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillarni sanab o‘tamiz.

Fikrimizcha, innovatsion salohiyatni rivojlantirish vazifasi ijro hokimiyati tomonidan ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Ijro etuvchi hokimiyatning roli intellektual, ilmiy-texnik salohiyatidan qisqa muddatlarda va yuqori samaradorlik bilan ishlab chiqarishda foydalanish imkonini beruvchi innovatsion tizimni tashkil etishdan iborat. To‘g‘ri olib borilgan innovatsion siyosat – bu davlat iqtisodiy tanazzulni yengib o‘tish va qayta qurishni ta’minlash va bozorni turli xil raqobatbardosh mahsulotlar bilan to‘ldirishga qodir bo‘lgan kuchli vositadir.

Yuqoridagi jarayonlardan so‘ng innovatsion rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi statistik indikatorlar tizimini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bu jihatlarni hisobga olgan holda jahondagi xalqaro indekslarini e’lon qiladigan reyting kompaniyalari bir nechta indikatorlardan foydalanadi.




1-rasm: Innovatsion salohiyatni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqola ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar uchun statistik indikatorlar tizimini takomillashtirish orqali mamlakatdagi innovatsion muhitning salohiyati va natijaviyligiga baho beruvchi ko'rsatkichlar ko'rsatildi. Hozirgi jahonning taraqqiyot topgan mamlakatlarining tajribalari ko'rsatishicha, mamlakatning innovatsion rivojlanishi eng samarali va yuqori likvidlikka ega yo'nalishlardan biri.

Jahonda global innovatsiyalar indeksida 83 ta indikatrodan foydalaniladi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda innovatsion mahsulotlar hajmini oshirishga bo'lgan e'tibor juda katta hamda xalqaro reytinglarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlar ham juda yuqori sur'atlarda olib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha innovatsion rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanib, 2030-yilgacha ushbu ko'rsatkichlarni yaxshilash vazifasi qo'yilgan. Ushbu Farmonda jami 83 ta ko'rsatkichlar davlat qurilishi, inson kapitali va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, infratuzilmani rivojlantirish, bozorlarni rivojlantirish, biznesni rivojlantirish, fan va texnologiyalar hamda ijodiy natijalarni rivojlantirish sohalariga bo'linib berilgan.

Fikrimizcha yuqoridagi umumiy ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun, birinchidan mamlakat va uning mintaqalarida mavjud resurs hamda salohiyatdan samarali foydalanib, mamlakatdagi shahar va tumanlarning ixtisoslashuviga ahamiyat qaratib mavjud innovatsion salohiyat orqali innovatsion mahsulotlar hajmini oshirish lozim.

Innovatsion rivojlanishning natijaviyligini ifodalovchi indikatorlar tizimi taklif qilinadi:

- innovatsion texnologiyalarni joriy qilgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
- innovatsion texnologiyalar asosida ishlaydigan korxona va tashkilotlarning to'lov qobilyati koeffitsiyenti;
- innovatsion texnologiyalarni joriy qilgan korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbati;
- innovatsion texnologiyalar asosida ishlaydigan korxonalarning jami korxonalar soniga nisbati;
- innovatsion texnologiyalar asosida ishlaydigan korxona va tashkilotlarning rentabellik darajasi (turli shakllarda);
- innovatsion texnologiyalar asosida ishlaydigan korxona va tashkilotlarning resurslar qaytimi;

- innovatsion texnologiyalarni joriy qilgan korxona va tashkilotlarga kiritilgan investitsiyalar hajmi o‘zgarishi.
- Innovatsion salohiyatni ifodalovchi indikatorlar tizimi:
- mamlakat hamda uning mintaqalari yoki tuman va shaharlarining 10 ming aholi soniga ko‘ra studentlar soni;
- mamlakat hamda uning mintaqalari yoki tuman va shaharlarining har
- 1000 aholisi soniga ko‘ra innovatsion faol korxonalarning xodimlari soni;
- innovatsion faol korxonalar xodimlarining umumiy sonida doktorlik, fan nomzodlarining solishtirma salmog‘i;
- sanoat ishlab chiqarishda asosiy fondlarning eskirish darajasi;
- YAIM(YAHM)ning bir birligiga tadqiqot va ishlanmalarga ichki xarajatlar miqdori;
- tadqiqotlarni bajarishda barcha xodimlarning sonida tadqiqotchilar salmog‘i;
- tadqiqotlarni bajarishda barcha xodimlarning sonida fan nomzodi va fan doktorlarining salmog‘i;
- bir million aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqot va ishlanmalar bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar soni;
- global axborot tarmoqlaridan foydalanuvchi tashkilotlar salmog‘i;
- MDH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tadqiqot va ishlanmalarni ishlash uchun qo‘shma loyihalar soni.

Bu ikki yo‘nalishdagi indikatorlar tizimini yaxshilash orqali mamlakat va uning mintaqalarida innovatsion loyihalar, innovatsion mahsulotlar hamda umumiy innovatsiya hajmlari oshadi.

Mamlakatning innovatsion rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi statistik indikatorlar asosan mintaqa yoki shahar tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida shakllantiriladi. Yuqorida keltirilgan statistik ko‘rsatkichlar tizimi yordamida mamlakat va ularning mintaqalarini innovatsion rivojlanishini baholash amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. https://www.globalinnovationindex.org/analysis-indicator (Jahon Intelektual Mulk Tashkilotining Global Innovatsiyalar Indeksi rasmiy sayti).
2. Soumitra Dutta. Innovating at the Top: How Global CEOs Drive Innovation for Growth and Profit, with Roland Berger, Geoffrey Samuels and Tobias Raffel. Palgrave MacMillan 2009.
3. Soumitra Dutta. Entrepreneurship and the Finance of Innovation in Emerging Markets, with Lourdes Casanova and Peter Cornelius. Elsevier 2018.
4. Stefan Hittmar, Michal Varmus, Viliam Lendel. Proposal of Evaluation System for Successful Application of Innovation Strategy through a Set of Indicators. Procedia Economics and Finance 26 (2015) 17 – 22.
5. Ekaterina Kharchenko, Elena Alpeeva, Olga Ovcharova. Innovative Potential of Russian Regions: Methodological Aspects of Analysis and Development Trends. Procedia Economics and Finance 14 (2014) 313 – 319.
6. Рейтинг инновационного развития субъектов Российской Федерации. Выпуск 6 / Г.И. Абдрахманова, С.В. Артемов, П.Д. Бахтин и др.; под ред. Л.М. Гохберга; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”. – М.: НИУ ВШЭ, 2020. – 264 с.
7. Бурцева Т.А., Сотников А.А., Сухинин И.В. Формирование региональной инновационной системы Калужской области // Территории инновационного развития: монография / под науч. ред. А.А. Сотникова; ГУУ; Филиал ГУУ в г. Обнинске. – М.:ГУУ, 2010, С. 19-39. – 1,5 п.л.
8. Бортник И.М., Сенченя Г.И., Михеева Н.Н., Здунов А.А., Кадочников П.А., Сорокина А.В.. Система оценки и мониторинга инновационного развития регионов России. Инновационная экономика. Инновации № 9 (167), 2012 г.
9. Shadiyeva D.X. Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini investitsiyalashning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. O‘zbekiston Milliy universiteti – 2020-y.


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

I shu'ba
IJTIMOIY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN "YASHIL" IQTISODIYOTGA JADAL O'TISH
Section I
ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS
I секция
УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

The Development of Marketing Innovations in Retail Trade ........ 4
**Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda**

Направления совершенствования стратегии компании для успешной организации IPO ........ 9
**Шахзод Сайдуллаев**

"Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish ........ 11
**Abdurahmonov Xolboy To'xtayevich**

Тўқимачилик саноати кластерлари инновацион фаолиятининг барқарор ривожланиш муаммолари ва ечимлари ........ 14
**Икрамов Мақсад Муратович**

O'zbekistonda chakana savdo korxonalarini rivojlanishi va innovatsion faoliyati ........ 20
**Karimov Baxrom Ilxomjonovich**

Unveiling the Dynamics of Agglomeration Economies in Sustainable Development ........ 24
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**

Kimyo tolalari asosida to'qimachilik mahsulotlari bozorini diversifikatsiyalash usullari ........ 28
**Raximov Furqat Jalolovich**

Qashqadaryo viloyatida Safari turizmini rivojlantirish dinamikasini o'rganish ........ 32
**Ro'ziyev Bobir Akramovich**

Брендни шакллантириш ва ривожлантириш бўйича замонавий маркетинг назариялари ва стратегиялари ........ 34
**Зияева Шахло Шоакбар қизи**

The Development of Marketing Innovations in Retail Trade ........ 37
**Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda**

Ногиронлиги бор шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш масалалари ........ 42
**Каримов Бекзоджон Илхомович**

Ichki turizmni rivojlanlantirish tashkiliy mexanizmining asosiy prinsiplari ........ 45
**Dehqonov Burxon Rustamovich**

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda ko'zi ojizlar bandligining innavatsion yechimi ........ 48
**Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li**

Аудиторлик текширувини халқаро стандартлар асосида ташкил этиш хусусиятлари ........ 51
**Исмоилова Феруза Исроиловна**

## II shu'ba
## "YASHIL" IQTISODIYOTGA INNOVATSIYALARNI KENG JORIY ETISHDA ILMIY TADQIQOT ISHLARINING LOYIHAVIY ISTIQBOLLARI
## Section II
## DESIGN PERSPECTIVES FOR RESEARCH WORK ON THE WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS IN THE GREEN ECONOMY
## II секция
## ПРОЕКТНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ ПО ШИРОКОМУ ВНЕДРЕНИЮ ИННОВАЦИЙ В "ЗЕЛЕНУЮ" ЭКОНОМИКУ

Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish ........ 56
**Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorining rivojlanishi tahlili ........ 58
**Axmedov Doniyorbek Ulugbek o‘g‘li**

Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo‘llari ........ 60
**Kultayev Farxod Shavkatovich**

Янги Ўзбекистонда инсон экологиясини юксалтиришнинг инновацион механизмлари ........ 62
**Ҳакимов Назар Ҳакимович, Рахмонов Дўстмурод Абдиназарович**

Тадбиркорлик субъектларини ривожлантиришда саноат ипотекасининг ўрни ........ 67
**Султанов Бахром Бегдуллаевич**

Ижтимоий ҳимояни ривожлантиришда янгича ёндашувлар ........ 70
**Каримов Бекзоджон Илхомович**

Капитал бозорини ривожлантириш масалалари ........ 72
**Турдиева Узайда Омирбаевна**

Инновацион тараққиёт йўлига ўтиш даврида меҳнатга ҳақ тўлашнинг рағбатлантирувчи таъсирини ошририлиши ........ 74
**Алимжон Қулматов**

Zamonaviy logistika tizimida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish ........ 78
**Xasanov Sarvar Ulug‘bek o‘g‘li**

The Development of Marketing Innovations in Retail Trade ........ 81
**Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda**

Innovatsion rivojlanishni baholovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish (xorij tajribasi) ........ 86
**Nuriddinov Zufar Akbarovich**

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.